

YANGI O'ZBEKISTONDA ADOLATLI VA IJTIMOIIY SIYOSAT YURITISHNING ASOSIY TAMOIYILLARI.

Elmurzayeva Sayyora Qaxramon qizi

Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika yo'nalishi I kurs magistranti.

Boboyeva Sitora Ro'zimaxmatovna
Termiz davlat pedagogika instituti PhD.

Annotatsiya: Maqolada 2022-2026 yillar davomida amalga oshiriladigan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasi doirasidagi islohotlar xususan har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'tish imkoniyatini yaratish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini oshirish, inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etishga qaratilgan islohotlar mazmun-mohiyati to'g'risida ba'zi mulohazalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: fuqaro, davlat, kasb-hunar, nodavlat ta'lim muassasalari, maktabgacha ta'lim, byudjet mablag'lari, maktab, milliy dastur.

ОСНОВНЫЕ ПРИНЦИПЫ СПРАВЕДЛИВОЙ И СОЦИАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.

Аннотация: В статье представлены некоторые соображения относительно содержания и сущности реформ в рамках Новой стратегии развития Узбекистана, которые будут реализованы в 2022-2026 годах, в частности, направленных на создание для каждого гражданина возможности перехода от государственного образования к конкретной профессии и специальности, увеличение участия негосударственных образовательных учреждений в этом процессе, повышение человеческого достоинства и дальнейшее развитие свободного гражданского общества.

Ключевые слова: гражданин, государство, профессия, негосударственные образовательные учреждения, дошкольное образование, бюджетные средства, школа, национальная программа.

BASIC PRINCIPLES OF FAIR AND SOCIAL POLICY IN NEW UZBEKISTAN.

Abstract: The article presents some considerations on the content and essence of the reforms within the framework of the New Uzbekistan Development Strategy, which will be implemented during 2022-2026, in particular, aimed at creating the opportunity for every citizen to move from state education to a specific profession and profession, increasing the participation of non-state educational institutions in this process, enhancing human dignity, and further developing a free civil society.

Keywords: citizen, state, profession, non-state educational institutions, preschool education, budget funds, school, national program.

Kirish. Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlat chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta’minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi. Shuningdek, aholining munosib hayot kechirishi, fuqarolarning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart sharoitlar yaratildi.

O‘zbekiston davlatining ijtimoiy siyosati yetarlicha keng doiradagi masalalarni, shu jumladan, aholini ish bilan ta’minlash va yangi mehnat munosabatlarini shakllantirish, aholining ayrim qatlamlarini qo‘llab-quvvatlash, sog‘liqni saqlash, ta’lim, madaniyat, san’at, jismoniy tarbiya va sport kabilarni qamrab oladi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Milliy yuksalish deganda, biz mamlakatimiz taraqqiyoti, xalqimizning hayot darajasi va turmush sifatini har tomonlama yuqori bosqichga ko‘tarishni tushunamiz. Ilm-fan, ta’lim-tarbiya, sog‘liqni

saqlash, madaniyat va sport sohalarida bo'layotgan katta o'zgarishlar hayotimizda muhim voqelikka aylanmoqda".

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida ijtimoiy rivojlanish bo'yicha o'ziga xos tizim shakllandi. Bu borada 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirilayotgani, "Obod qishloq", "Obod mahalla", "Yoshlar – kelajagimiz", "Besh ijobiy tashabbus" kabi dasturlar aholini yangicha fikrlash va ishlashga safarbar etishda muhim rol o'ynamoqda. Buning natijasida, hatto mamlakatning eng chekka hududlari, markazlardan olisda joylashgan qishloqlarning ham me'moriy qiyofasi tubdan yangilanib, aholining turmush farovonligi yuksaltirilmoqda.

2022 yil – "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili" davlat dasturi "Yo'l xaritasi"da inson qadrini ulug'lashga katta urg'u berilib, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirishda eng ko'p – 30 ta maqsad belgilab berildi. Mazkur maqsadlar doirasida belgilangan chora-tadbirlarning salmoqli qismi aholi uchun majburiy ijtimoiy kafolatlarni ta'minlash, aholining ehtiyojmand qatlamlarni ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, ayniqsa, mamlakat taraqqiyotining asosiy omili hisoblangan ta'lim va tibbiyot sohasining yetakchi kuchi – o'qituvchilar va shifokorlarning oylik maoshlarini bosqichma-bosqich oshirish, va bu miqdorni 1000 dollar ekvivalentiga yetkazishga qaratildi. Sarhisoblarga qaraganda, O'zbekiston aholisi har yili 640-650 ming kishiga o'sib, mehnatga layoqatli aholi soni 360-370 mingni tashkil etmoqda.

Iqtisodiyot aholining bunday mehnat resurslarini qoplay olishida davlatga yo'naltirilayotgan investitsiyalar oqimi va tadbirkorlik rivoji muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni mazkur omillar tufayli aholining doimiy bandiligini ta'minlashga erishiladi. Shu bois strategiyada har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lamini 2 barobar oshirish, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazishga qaratilgan. Albatta, bu borada

kadrlar tayyorlash sifati birlamchi ahamiyatga ega. Masalan, dastlab mamlakatimizda bitiruvchilarning oliy ta'lim bilan qamrov darajasi juda past edi. Bu xususda Prezident Sh.Mirziyoyevning "5 yil oldin oliy ta'lim bilan qamrovimiz 9 foiz edi, hozir 29 foizga chiqdik. Shundan xursandmisiz, 205 desangiz, aytaman – yo'q, hali xursand emasman. 50 foizgacha chiqarsak, ko'nglim to'ladi. Olimlari, xalqi bilimli bo'lgan davlat baribir kuchli bo'ladi", degan so'zlarini eslash o'rinli. Shu jumladan, masofaviy ta'lim shakli bo'yicha qabul kvotani 2022 yilda oliy ta'lim qamrov darajasini 38 foizga yetkazishni belgilab berilishi ko'zlangan marralarga olib boradi.

O'zbekiston yoshlar mamlakati ekan, ularning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ta'lim olishi, mehnat qilishi, bilim va qobiliyatini ro'yobga chiqarishi uchun zarur sharoitlar yaratilmoqda. 2021-yilning "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili", 2024-yil O'zbekistonda "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb e'lon qilingani buning yana bir amaliy ifodasi bo'ldi. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, yoshlarning tadbirkorlik sohasidagi g'oya va tashabbuslarini ro'yobga chiqarish, ularni ish va daromad manbai bilan ta'minlashga davlat miqyosida katta ahamiyat berilgani holda, 2017-2021 yillar davomida 30 yoshgacha bo'lgan tadbirkorlar soni 5 barobar ko'payib, 500 mingdan oshdi. 2021 yilning o'zida 92 mingdan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 300 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratilgani bunday yoshlar safini yana-da kengaytirishga xizmat qilmoqda. Mahallalarda tashkil etilayotgan kasb-hunarga o'qitish kurslarida minglab o'g'il-qizlar mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan zamonaviy kasb-hunarlarini egallamoqda. O'zbekiston - yuksak marralarni ko'zlagan mamlakat sifatida Uchinchi Renessans poydevorini qurmoqda. Uchinchi Renessans poydevorini yaratish yangi O'zbekiston strategiyasida alohida o'rin egallaydi.

Strategiyaning "Adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish", deb nomlanishi O'zbekistonda ushbu masalaga jiddiy e'tibor qaratilayotgani va davlat siyosati darajasiga ko'tarilganidan dalolatdir. Bundan tashqari, har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb-hunarga o'qish imkoniyatini yaratish, kasbga o'qitish ko'lami 2 baravar oshirilib, jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu

jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish, umumta'lim maktablarining kasb o'rganish istagidagi bitiruvchilarini davlat tomonidan kamida bir kasbni egallashiga ko'maklashuvchi tizimni joriy etish vazifalari qo'yilgani inson kapitali bugun nechog'lik dolzarblik kasb etayotganini anglatadi.

2022–2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston Taraqqiyot strategiyasining 37-maqsadida “Har bir fuqaroga davlat hisobidan aniq kasb hunarga o'qish imkoniyatini yaratish. Kasbga o'qitish ko'lamini 2 baravar oshirib, 208 jami 1 million nafar ishsiz fuqaroni kasb-hunarlariga o'qitish va bu jarayonda nodavlat ta'lim muassasalarining ishtirokini 30 foizga yetkazish”, 49-maqсадda esa 2026 yilgacha nodavlat oliy ta'lim tashkilotlari sonini kamida 50 taga etkazish vazifasi belgilangan.

Xulosa. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichida barcha soha va yo'nalishlarda fundamental islohotlarni qamrab olgan Harakatlar strategiyasi va uning mantiqiy davomi bo'lgan Taraqqiyot strategiyasi hamda O'zbekiston – 2030 strategiyasida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish bosh maqsad sifatida belgilandi. Bu borada ayniqsa, ijtimoiy sohada ko'plab amaliy ishlar qilinidi. Sog'liqni saqlash, madaniyat va sport, ilm-fan, ayniqsa, ta'lim-tarbiya sohalarida tub islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimidagi islohotlar bu borada yetakchilikni kasb etdi. Shu o'rinda Prezident tashabbusi bilan mamlakatda umumta'lim maktablarida 11 yillik tizim tiklandi, maktab ta'limini rivojlantirish masalasi buyuk umummilliy maqsadga, umumxalq harakatiga aylandi. Zero, kuchli ijtimoiy siyosatni amalga oshirish O'zbekiston milliy siyosatining eng muhim tamoyilidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev. Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatdarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T., "O'zbekiston". 2017. 23 bet
2. Mirziyoyev. Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. T., "O'zbekiston". 2022. 416 bet

3. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson ma'nfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yiligiga bag'ishlangan tantanali marosimidagi ma'ruzasi. - Toshkent: O'zbekiston. 2017
4. Mustaqil O'zbekiston tarixi. Mas'ul muharrir A.Sabirov. - Toshkent: Akademiya, 2013.
5. Новейшая история Узбекистана. Руководитель проекта и редактор. М.А.Рахимов. - Toshkent: Adabiyot uchqunlari, 2018.
6. O'zbekistonning eng yangi tarixi. R.H.Murtazayeva, A.A.Ermetov, A.A.Odilov. - Toshkent, 2023.
7. O'zbekistonning eng yangi tarixi xrestomatiyasi. A.Sabirov, S.Pulatova. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2014. 328 b.
8. Saydaliyeva N, Usarova F. Strategiya deystviy - osnova novogo Uzbekistana. Tashkent: Nodirabegim, 2020. - 302 s.